

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
rektori Sh.A.Boymuradov

20 ____ yil « ____ » ____

Ro‘yxatga olindi:

№ ____ Bakalavriat

ST.-60910100; 1.3.01

**TERAPIYA. KLINIK FARMAKOLOGIYA
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900 000	–	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi:	910 000	–	Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishlari:	60910100	–	Stomatologiya

Fan/Modul kodi TERKF15607		O'quv yili 2025/2026	Semestr 5-6	ECTS/Kreditlar 7	
Fan/Modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 3/4	
1.	Fan/Modul nomi	Auditoriya mashg'ulotlar (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Terapiya. Klinik farmakologiya	105	105	210	
2.	I. Fanning mazmuni Ichki kasalliklar – keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezini, tasnifi, klinik kechishi, laboratoriya, asbob-uskunalar, klinik ko'rsatmalar yordamida tashxis qo'yish, oqibati, asorati, oldini olish choralari, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda tezkor yordam ko'rsatish, mustaqil ravishda tekshirish o'tkazish, ishga layoqatliligini bilish, davolash asoslarini o'rgatadigan modul bo'lib, umumiy amaliyot shifokori-bakalavr mutaxassisligiga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu fan dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, talabani nazariy ma'lumotidan amaliy ko'nikmalarni bajarishga o'rgatib, orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi. Fanni o'qitish uchun gistologiya, odam anatomiyasi, ichki kasalliklar modullari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Ichki kasalliklar moduli keyinchalik boshqa klinik fanlar uchun nazariy zamin bo'lib xizmat ko'rsatadi.				
	Klinik farmakologiya: Fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Klinik farmakologiya moduli tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga dori vositalarining farmakodinamikasi, farmakokinetikasi, nojo'ya ta'siri va o'zaro ta'siri bo'yicha olgan bilimlarini bemorlarda eng samarali va havfsiz terapiya, ya'ni ratsional farmakoterapiya o'tkazish maqsadida qo'llay olish uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallab olishga imkoniyat yaratadi, hamda bo'lg'usi shifokorlarda klinik fikrlash uchun zamin yaratib beradi. Dasturning maqsad va vazifalarini yechimi yakunida talaba gorzontal va vertikal integratsiya jarayonlarida olgan bilim va amaliy ko'nikmalarni klinik uyg'unlashtirib, yetuk, raqobatbardosh, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shifokor bo'lib shakllanadi. Mazkur fan o'quv rejadagi normal va patologik fiziologiya, patologik anatomiya, biologik kimyo, farmakologiya, ichki kasalliklar, xirurgik kasalliklar, akusherlik va ginekologiya, pediatriya, geriatriya fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanib, talabalarda klinik fikrlashni shakllantirish orqali, dori vositalarini ratsional qo'llash, preparatlar samaradorligi va havfsizligini nazorat qilishga o'rgatadi.				

Fanni o‘qitishdan maqsad – ichki kasalliklarning turli variantlarida, shuningdek, ba’zi keng tarqalgan kasalliklarning atipik kechishida, kam uchraydigan kasalliklarning tipik kechishida klinik tashxis qo‘yish va uni asoslashni, ular asoratlari oldini olish va standartlar asosida davolash ko‘nikmasini shakllantirish.

Klinik farmakologiya: muayyan patologik jarayonda dori vositalarining klinik farmakologik xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda eng samarali va havfsiz preparatni to‘g‘ri tanlash, hamda o‘tkazilayotgan davolashning samaradorligini va havfsizligini baholovchi mezonlar bilan ta‘minlash bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – ichki kasalliklarning etiologiya, patogenezi, tasnifi, klinik ko‘rinishlari, asoratlari, kechishi, oqibati, davolash va profilaktikasi bo‘yicha bilimlarni takomillashtirish; bemorlarni anamnez yig‘ish, turli tizimlar bo‘yicha, klinik tekshirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni takomillashtirish; kasalliklarning asosiy diagnostik mezonlarini aniqlay olishni o‘rgatish; taxminiy, klinik diagnozlarni asoslashni o‘rgatish; bemorlarni tekshirish rejasini tuzish, shifokor taktikasi va davolashni o‘rgatish; laborator va instrumental tekshiruvlar natijalarini interpretatsiya qilishni o‘rgatish; qiyosiy taqqoslash va yakuniy diagnozni asoslay bilishni o‘rgatish; ichki kasalliklarning turlicha variantlari bo‘yicha kechishida davolashni tavsiya eta olish va shoshilinch holatlarda tezkor yordam berishni o‘rgatish.

Klinik farmakologiya: umumiy klinik farmakologiya bo‘limining asosiy tomoyillarini; eng keng qo‘llaniladigan dori vositalarining klinik-farmakologik xususiyatlarini, dori vositalari farmakodinamikasi va farmakokinetikasini; muayyan guruh dori vositalari bilan davolash samaradorligi va havfsizligi baholash uchun kerakli tekshiruvlar majmuini tanlash va olingan natijalarni tahlil qilishni; bir qator ichki va tashqi omillarni xisobga olgan holda dori vositalarining dozlash tartibini belgilashni, dori vositalari nojo‘ya ta’sirlarini oldindan bila olish, ularni aniqlash, oldini olish va yuzaga kelgan nojo‘ya ta’sirlarni bartaraf etishni; dori vositalarini homiladorlik, emizikli davrda, bolalarda va keksa yoshdagi bemorlarda qo‘llanilish xususiyatlarini; dori vositalari o‘zaro ta’siri natijalarini xisobga olgan holda preparatlarni ratsional kombinatsiyalashni o‘rgatishdan; Sog‘liqni saqlash birlamchi bo‘g‘inida faoliyat yurituvchi shifokor kvalifikatsion xarakteristikasiga, “Davolash ishi” ixtisosligi talablariga javob beruvchi shifokor tayyorlashdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Ichki kasalliklar:

1-mavzu. Yurak qon-tomir kasalligi bilan bemorlarni fizikal va laborator-instrumental tekshirish usullari.

2-mavzu. Pnevmoniyalar (etiologiya, patogenezi, klinika, tekshiruv usullari, kechishi, davolash).

3-mavzu. Mitral va aortal klapanlarning orttirilgan nuqsonlari: yetishmovchiligi va stenozi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

4-mavzu. Gipertoniya kasalligi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

5-mavzu. Miokard infarkti (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

6-mavzu. Me'da va 12 barmoq ichak yara kasalligi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

7-mavzu. Jigar tsirrozi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

8-mavzu. Surunkali pielonefrit va glomerulonefritlar (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

9-mavzu. Revmatoid artrit (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

Klinik farmakologiya:

1-mavzu. "Klinik farmakologiya" fani. Dori vositalarining farmakodinamikasi va farmakokinetikasi. Fanning mazmuni. Klinik farmakologiya fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Farmakodinamikaning asosiy masalalari. Dori vositalarining ta'sir mexanizmi. Dori vositalari ta'sirini klinik baholash. Bemor hayoti sifat ko'rsatkichi - dori vositalari ta'sirini baholash me'zoni sifatida. Dori vositalarining farmakokinetik ko'rsatkichlari haqida tushuncha. Farmakodinamika va farmakokinetika o'rtasidagi bog'liqlik. Dori vositalarini dozalash tamoyillari.

2-mavzu. Dori vositalarining o'zaro ta'siri. Dori vositalarining o'zaro ta'siri. Antagonizm va sinergizm haqida tushuncha. Dori vositalari o'zaro ta'siri turlari. Farmasevtik, farmakokinetik, farmakodinamik o'zaro ta'sir. Fiziologik o'zaro ta'sir haqida tushuncha. Dori vositalari o'zaro ta'siriga ta'sir etuvchi omillar. Dori vositalari o'zaro ta'sirini xisobga olgan holda ratsional farmakoterapiya o'tkazish tamoyillari.

3-mavzu. Dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari. Nojo'ya ta'sirlarning zamonaviy tasnifi. Dori vositalari nojo'ya ta'siri monitoringi. A, V, S, D tipidagi nojo'ya ta'sirlar. Aniqlangan nojo'ya ta'sirlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar. Dori vositalari nojo'ya ta'sirlarini aniqlash usullari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:

Ichki kasalliklar:

1-mavzu: Nafas a'zolari kasalliklari bilan bemorlarni tekshirish. So'rab-so'rishtirish. Ko'zdan kechirish. Ko'krak qafasini palpatsiyasi va perkussiyasi. O'pka auskultatsiyasi: asosiy va qo'shimcha nafas shovqinlari. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash.

2-mavzu: Yurak qon-tomir kasalligi bilan bemorlarni tekshirish usullari. So‘rab-surishtirish, ko‘zdan kechirish. Yurak soxasini va periferik tomirlarni ko‘zdan kechirish. Yurak palpatsiyasi va perkussiyasi. Yurak auskultatsiyasi. Tonlarning hosil bo‘lish mexanizmi. Sog‘lom odamda tonlar va yurak qon-tomir kasalliklarida tonlarning o‘zgarishi. Yurak shovqinlari. Shovqinlarning hosil bo‘lish mexanizmi. Organik va funksional shovqinlar. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash.

3-mavzu: Xazm qilish a‘zolari kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni tekshirish. So‘rab-surishtirish, ko‘zdan kechirish. Qorin palpatsiyasi. Jigar palpatsiyasi va perkussiyasi. Jigar kasalliklarida asosiy klinik sindromlar: sariqlik, portal gipertenziya, jigar yetishlovchiligi.

4-mavzu: Buyrak va peshob ajratish tizimi bilan kasallangan bemorlarni tekshirish. So‘rab-surishtirish, ko‘zdan kechirish. Buyrak palpatsiyasi va perkussiyasi. Buyrak kasalliklaridagi asosiy klinik sindromlar: siydik, nefrotik, gematurik.

5-mavzu: Pnevmoniyalar (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

6-mavzu: Mitral qopqog‘i yetishmovchiligi va mitral stenoz. Aorta qopqog‘i yetishmovchiligi, aorta og‘zi stenoz (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

7-mavzu: Gipertoniya kasalligi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

8-mavzu: YuIK tashxisi. Stenokardiya (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

9-mavzu: Miokard infarkti (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

10-mavzu: Me‘da va 12 barmoq ichak yara kasalligi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

11-mavzu: Surunkali gepatitlar. Jigar sirrozi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

12-mavzu: Surunkali pielonefrit. Glomerulonefritlar (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

13-mavzu: Revmatoid artrit. Tizimli qizil bo‘richa (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

Klinik farmakologiya:

1-mavzu. Gemostaz tizimiga ta‘sir etuvchi dori vositalari klinik farmakologiyasi.

2-mavzu. Qon tomirlar tonusiga ta‘sir etuvchi dori vositalarining klinik farmakologiyasi.

3-mavzu. Antibakterial dori vositalarining klinik farmakologiyasi.

4-mavzu. Yallig‘lanishga qarshi dori vositalari va immunokorrektorlar klinik farmakologiyasi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

IV. Amaliy ko'nikmalar:

O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

Ichki kasalliklar:

1. Ko'krak qafasi palpatsiyasi;
2. O'pkaning taqqoslama perkussiyasi;
3. O'pka auskultatsiyasi;
4. Yurak sohasi palpatsiyasi
5. Yurak perkussiyasi (nisbiy bo'g'iq chegaralari);
6. Yurak auskultatsiyasi;
7. Arterial qon bosimni o'lchash;
8. Pulsni tekshirish;
9. EKG- olish usullari;
10. Qorin bo'shlig'ining yuzaki palpatsiyasi;
11. Jigar palpatsiyasi;
12. Kurlov bo'yicha jigar perkussiyasi;
13. Arterial qon bosimni o'lchash;
14. O'tkir miokard infarktida og'riqda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

Klinik farmakologiya:

1. Dori anafilaktik shokida shoshilinch yordam ko'rsatish
2. Nafas qisish xurujida ingalyator qo'llash usuli
3. Nafas qisish xurujida shoshilinch yordam ko'rsatish

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

Ichki kasalliklar:

1. Nafas olish a'zolari kasalliklarini zamonaviy laborator-instrumental tekshiruv uslublari
2. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini zamonaviy instrumental tekshirish usullari
3. Xazm tizimini instrumental tekshirish usullari: rentgenologik, ezofagogastroduodenoskopik, kolonoskopik, rektoromanoskopik usullarni interpretatsiyasi. Xoletsistografiya, jigarni skanirlash. Jigar va o't qopi UTT, kompyuterli tomografiya interpretatsiyasi
4. Peshob ajratish tizimini zamonaviy instrumental tekshirish usullari

5. Nafas a'zolari kasalliklaridagi balg'am va plevra suyuqligini laborator tekshiruv natijalarini interpretatsiyasi.
6. Mitral klapan prolapsi
7. Simptomatik arterial gipertenziyalar
8. Koronarografiya
9. Miokard infarktida kechiktirib bo'lmaydigan yordam choralari
10. Me'da va 12 barmoqli ichak yara kasalligi asoratlari
11. Jigar sirrozini tashxislashda fibroskan (elastometriya) instrumental tekshiruv usulining ahamiyati
12. Nefrotik sindrom
13. Tizimli sklerodermiya

Klinik farmakologiya:

1. Mahalliy anestetik dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
2. Analgetik va narkoz uchun vositalarni ratsional qo'llashga klinik-farmakologik yondoshuv.
3. Miorelaksantlar va antixolinesteraz dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
4. Antigistamin dori vositalarining klinik farmakologiyasi, ularni stomatologiyada ishlatilishi.
5. Viruslarga qarshi dori vositalarining klinik farmakologiyasi, ularni stomatologiyada ishlatilishi.
6. Zamburug'larga qarshi dorivositalarining klinik farmakologiyasi, ularni stomatologiyada ishlatilishi.
7. Me'da-ichak tizimiga ta'sir qiluvchi dori vositalari klinik farmakologiyasi.
8. Antiseptiklar va dezinfektantlar.
9. Vitaminlar, kofermentlar va temir preparatlarining klinik farmakologiyasi.
10. Suyak to'qimasiga ta'sir qiluvchi dori vositalarining klinik farmakologiyasi. Kaltsiy va fluor preparatlarning klinik-farmakologik xarakteristikasi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari bemorlarda asosiy kasallik va uning asoratlari, xamda yondosh kasalliklarni hisobga olgan xolda, ushbu bemorni davolash uchun tanlangan dori vositalarining to'g'riligini (mavjud bo'lgan standart davo bo'yicha tavsiyalar, davolashning ratsional sxemalari va Umumjaxon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari asosida) baholash;
- farmakoterapiya o'tkazish jarayonida ushbu bemorda qo'llanilayotgan dori vositalari ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarni oldini olish bo'yicha barcha tekshiruv usullari o'tkazilganligini baholash;

- ushbu bemorda qo'llanilayotgan dori vositalari kombinatsiyasining ratsionalligini baholash (dori vositalarining samarali va samarasiz o'zaro ta'sirlari);
- o'tkazilayotgan farmakoterapiya samaradorligini baholash ko'nikmalarini pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan ro'yxat asosida navbatchi shifokor-pedagog nazoratida standartlashtirilgan patientslar (bemorlar) kuratsiyasini o'tkazish va olib borish, dori bilan davolash tahlilini yozish;
- bemorlar kuratsiyasida davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan nazorat qilishda ishtirok etish;
- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarni tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Fan bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda qo'yidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish;

	– bemorlar kuratsiyasida davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan nazorat qilishda ishtirok etish; – aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suxbat va ma’ruzalarni o’tkazish; – ayrim nazariy mavzularni o’quv adabiyotlari yordamida mustaqil o’zlashtirish; – berilgan mavzu bo’yicha axborot (referat) tayyorlash; – fanning bo’limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo’yicha ishlash va ma’ruzalar qilish; – vaziyatli va klinik muammollarga yo’naltirilgan vaziyatli masalalar yechish; – CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish; – modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.
3.	VI. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o’zlashtirish natijasida talaba: Ichki kasalliklar: • ichki kasalliklarda bemorlarni parvarishlash; asosiy tibbiy xujjatlarni bilish; EKG yuklamali sinama bilan; EKG-monitoring; • Exokardiografiya, dopplerografiya bilan; Rentgenografiya, kompyuter tomografiya, yadro-magnit rezonans tomografiya, angiografiya va yurak kateterizatsiyasi; balg’amni bakteriologik ekish; Plevra bo’shlig’ini punktsiyasi; Bronxografiya; Spiroografiya; Broxoskopiya; najasni bakteriologik ekish; najasni disbakteriozga tekshirish; Oshqozon shirasi va duodenal suyuqlik tarkibini tekshirish; Punktsiya (bo’shliqlar va bo’g’im oralig’i); • eng ko’p tarqalgan ichki a’zolar kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, asoratlari, davolash usullari; • tekshiruv va kompleks davo rejasini tuzish • gepatitning markerlarini aniqlash; UTT; EGDFS; Kolonoskopiya; Biopsiya haqida tasavvurga ega bo’lishi (bilim); • immunologik tekshiruvlar, RF, SIK; • peshob bakteriologik ekmasi va antibiotikogramma to’g’risida • ichki kasalliklarning ichki a’zolar kasalliklarini tekshirishni • EKG olish va o’qishni bilish; pikfloumetriya qilish; mos parxez va davolash rejasini buyurish; ichki a’zolar kasalliklariga dastlabki va klinik tashxis qo’ya bilishi va ulardan foydalana olishi (ko’nikma); • bemorni professional so’roq va ko’rikdan o’tkazish; tibbiy xujjatlar bilan ishlash; • hayot uchun xavfli bo’lgan holatlarda shoshilinch terapevtik yordam

ko'rsatish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).*

Klinik farmakologiya:

- asosiy gurux dori vositalarining farmakologik xarakteristikasi;
- ta'sir mexanizmi;
- dozalash tartibi;
- qo'llanilishiga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar;
- klinik retseptura haqida *haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).*
- asosiy gurux dori vositalarining klinik-farmakologik xarakteristikasini (farmakodinamikasi, farmakokinetikasi, nojo'ya ta'siri va o'zaro ta'sirlarini);
- bir qator ichki va tashqi omillarni xisobga olgan holda dori vositalarining qo'llanilishiga ko'rsatmalarni aniqlash, dozalash tartibini belgilashni;
- o'tkazilayotgan farmakoterapiyaning samaradorligi va havfsizligini nazorat qilish usullarini;
- dori vositalarilarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarini aniqlashni va ularni bartaraf etish choralarini;
- o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda dori vositalarining ratsional kombinatsiyalarini qo'lashni;
- homilador va emizikli ayollar, bolalar va chaqaloqlar, keksa bemorlarni davolashda havfsiz va effektiv dori vositalarni *bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).*
- dori bilan davolash anamnezi va allergologik anamnez yig'ishni va olingan natijalarni taxlil qilish;
- farmakoterapiya samaradorligi va havfsizligini baholashning ishonarli va qulay usullarini tanlashni va ularni amalga oshirishni, olingan natijalarni tahlil qilish;
- dori vositalarining nojo'ya ta'sirlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni korreksiya qilishni;
- dori anafilaktik shokida shoshilinch yordam ko'rsatish;
- retsept yozib berish
- samarali va havfsiz farmakoterapiya o'tkazish maqsadida dori vositasini tanlash algoritmini tuzishni va dozalash tartibini belgilash;
- patologik jarayon va qo'llanilayotgan dori vositalarining klinik-farmakologik xususiyatlarini xisobga olgan holda, dalillarga asoslangan tibbiyot asosida o'tkazilayotgan farmakoterapiyani ekspert baholash;
- stomatolog kvalifikatsion xarakteristikasining I-II-kategoriyasi bo'yicha bemorlarni ratsional davolash asoslarini o'zlashtirish *ko'nikmalariga ega*

	bo'lishi kerak. (malaka).
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari • Interfaol o'yinlar. • Seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar). • Guruhlarda ishlash. • Taqdimotlarni yaratish. • Individual loyihalar. • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha yozma yoki og'zaki va test ishni muvoffaqiyatli topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyo, 2021 y. (lotin). 2. Gadaev A.G. Karimov M.Sh. Ichki kasalliklar propedevtikasi. Darslik. T. 2018. 3. Мухин Н.А., Моисеев В.И. Пропедевтика внутренних болезней. Учебное пособие. Москва. 2012 г. 4. Рябов С.И. Внутренние болезни. 1-2- т. Учебное пособие. Санкт-Петербург. 2015г. Klinik farmakologiya: 1. Якубов А.В. и соавт. “Клиническая фармакология”, Учебник. Ташкент. 2023 г. 2. Yakubov A.V. va xammualiflar. “Klinik farmakologiya”, darslik. Toshkent. 2023 y. 3. Верткин А.Л., Козлов Р.С., Козлов С.Н. Клиническая фармакология для студентов стоматологических факультетов. Учебник. Москва 2022 г. Qo'shimcha adabiyotlar: 5. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyo, 2018 y. 6. Nabiyeva D.A., Muhammadiyeva S.M. Bihiktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020 y. 7. Umarova Z.F. Nefrologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2021 y.

8. Gadaev A.G., Rozikov A.A., Raximova M.E. Amaliy elektrokardiografiya. -Toshkent. Turon Zamin Ziyo nashriyoti. 2016 y.
9. Kodirova Sh.A. Bronxoektatik kasallik. Plevritlar. O'quv qo'llanma. Toshkent, TTA Matbuot uyi, 2023 y.
10. Jabbarov O.O., Kodirova Sh.A. Arterial gipertenziya: tashxislar va davolash. O'quv qo'llanma. Toshkent, TTA Matbuot uyi, 2022 y.
11. Гордиенко А.В. Госпитальная терапия, Учебник. Санкт-Петербург. 2016 г.
12. Мурашко В.В., Струтынский А.В. Электрокардиография. Учебное пособие. Москва. 2019г.
13. Ройтберг Г.Е., Струтынский А.В. Внутренние болезни. Система органов дыхания. Учебное пособие. Москва. 2018г. (электрон).
14. Ройтберг Г.Е., Струтынский А.В. Внутренние болезни. Сердечно-сосудистая система. Учебное пособие. Москва. 2019г.
15. Ройтберг Г.Е., Струтынский А.В. Внутренние болезни. Система органов пищеварения. Учебное пособие. Москва. 2018г.
16. Моисеева В.С., Мартынова А.И., Мухина Н.А. Внутренние болезни. Учебник в двух томах. Москва. 2012 г.
17. Harrison's Textbook Principles of Internal Medicine-19th Edition – 2015.

Klinik farmakologiya:

1. Кац П.С., Мавлянов И.Р., Махкамова Р.К. “Клиническая фармакология”, Учебник. Ташкент . 2012 г.
2. Mavlyanov I.R., Kas P.S., Maxkamova R.K. “Klinik farmakologiya”, darslik. Toshkent . 2012 y.
3. Bertram G., Katsung P. Bazisnaya i klinicheskaya farmakologiya v 2-x tomax. Uchebnik. Moskva. 2008 g.
4. James M.Ritter Clinical pharmacology and Therapeutics. Great Britain. 2008 y.

Internet saytlar:

www.medlook.ru

www.medbok.ru

www.medicum.ru


www.medtext.ru

www.medkniga.ru

www.cardioline.ru

www: <http://buks.ru/book>; [http:// asp 2013. ru/medicine/01/medicine 100645](http://asp.2013.ru/medicine/01/medicine_100645);

[http:// medprom.ru/ medprom](http://medprom.ru/); <http://>

	www.docs.pp.ru www.ziyonet.uz; www.lex.uz; www. cardiosite.ru; www. cardiologia.ru; www.bilim.uz; www.gov.uz; www.mf.uz. Klinik farmakologiya: 1. www/ziyonet.uz 2. http://www.clinicpharm.ru 3. http://forum.labclinpharm.ru/ 4. http://clinpharmbook.ru/ 5. https://www.clinicalpharmacology.com/ 6. http://www.evidence-update.ru/ 7. http:// medline. Ru 8. http://med.ru
7.	Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat tibbiyot universitetining 05.06.2025 yildagi 1328-sonli buyrug‘i (buyruqning 2__-ilovasi) bilan tasdiqlangan. O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova Fakultet dekani A.A.Xamrayev 
8.	Fan/Modul uchun ma’sul: Jabbarov O.O. –2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor Tursunova L.D. –2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası dotsenti, PhD. Klinik farmakologiya: Yakubov A.V. – klinik farmakologiya kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor. Zufarov P.S. – klinik farmakologiya kafedrası professori, tibbiyot fanlari doktori.

	Pulatova N.I. – klinik farmakologiya kafedrası assistenti, tibbiyot fanlari doktori.
9.	Taqrizchilar: Ichki taqrizchi: A.A.Xamrayev – ichki kasalliklar, endokrinologiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor. Tashqi taqrizchi: Abduraximova L.A. – Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti. Klinik fanlar kafedrası mudiri p.f.d Ismoilov S.R. – Urganch Davlat tibbiyot instituti farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrası professori, tibbiyot fanlari doktori.